


## 2020-yilning yanvar-fevral oylarida Surxondaryo viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha, 2020-yilning yanvar-fevral oylarida viloyat korxonalari tomonidan 716,5 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarish indeksi 102,1 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish - 43,5 % ga, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash - 3,7 % ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash - 1,5 % ga, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoat - 1,1 % ga o'sishi hisoblanadi.

### 2020-yilning yanvar-fevral oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi



**Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni  
ishlash.**

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2020-yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlari hajmi 33,9 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 4,7 % ni tashkil etdi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan tabiiy qum - 2,3 % ga, chaqiq tosh qazib olish - 2,0 martaga, ko'mir - 14,5 % ga oshdi, xom neft (96,9 %) pasaygan.



**Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari  
tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini  
ishlab chiqarish**

2019-yil yanvar-fevralida ishlab chiqarilgan	Tog' - kon sanoati va ochiq konlarni ishlash mahsulotlari	2020-yil yanvar-fevralida ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, %
-------------------------------------------------------	-----------------------------------------------------------------	-------------------------------------------------------	-------------------------

**Ko'mir, ming t.**

27,7



31,8

114,5



**Neft, ming t.**

12,9



12,5

96,9



2019-yil yanvar-fevralida ishlab chiqarilgan	Tog' - kon sanoati va ochiq konlarni ishlash mahsulotlari	2020-yil yanvar-fevralida ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, %
----------------------------------------------	-----------------------------------------------------------	----------------------------------------------	-------------------

**Osh tuzi, ming t.**

2,3



0,9

40,3



**Qum, ming t.**

4,4



10,2

2,3m



**Chaqiq tosh, ming t.**

11,5




22,9


2,0m




**Neft qazib olish, ming t.**



**Ko'mir qazib olish, ming t.**



**Chaqiq tosh qazib olish, ming t.**




**Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati).**

2020-yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 630,8 mlrd.so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 88,0 % ini tashkil etdi.


Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmog'ining ulushi - 0,1 % ni (2019-yil yanvar-fevral oylarida - 0,2 %), o'rta-yuqori texnologiyali - 0,3 % ni (0,3 %), o'rta-quyi texnologiyali - 23,6 % (23,8 %) ni va quyi texnologiyali - 64,0 % (62,0 %) ni tashkil etdi.

**Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo'yicha  
ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi**

**2019 yil yanvar-fevral**








**2020 yil yanvar-fevral**



Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarish - 43,5 % ni, oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarish - 26,2 % ni, mashina va uskunalarni ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, yarim pritseplar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasi - 6,7 % ni, yog'och va po'kak buyumlar, pohl va to'qish uchun materiallardan buyumlar, qog'oz va qog'oz mahsulotlari va mebel ishlab chiqarish - 2,7 % ni, kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarish - 0,4 % ni tashkil etdi.

Shu bilan birga, ishlab chiqarish sanoatida o'tgan yilning shu davriga nisbatan solishtirganda bir qavatli ip - 1,7 martaga, quyish uchun tayyor beton - 2,4 martaga, un - 30,6 % ga, don ekinlarini qayta ishlashdan hosil bo'lgan kepak, chiqit va boshqa chiqindilar - 32,2 % ga, qurilish uchun qorishmalar va aralashmalar - 5,4 % ga, yirik shoxli qoramollar uchun tayyor ozuqa (ko'p komponentli aralashmalardan tashqari) - 3,2 % ga oshdi.

**Ishlab chiqaradigan sanoatda  
yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdagi sanoat  
mahsulotlarini ishlab chiqarish**

2019-yil yanvar-fevralida ishlab chiqarilgan	Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari	2020-yil yanvar-fevralida ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, %
	<b>Paxta tolasi, ming t.</b>		
6,8		2,8	41,1 ↓
	<b>Tozalangan kungaboqar yoki masxar yog'i, ming t.</b>		
3,8		0,0	- ↓
	<b>Un, ming t.</b>		
18,4		24,1	130,6 ↑
	<b>Portlandsement, ming l.</b>		
0,0		9,3	- ↑
	<b>Dizel yoqilg'isi, ming t.</b>		
1,7		0,7	41,1 ↓

**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va  
havoni konditsiyalash.**





Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 41,7 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining - 5,8 % ni) tashkil etdi.

2020-yilning yanvar-fevral oylarida sanoatning mazkur tarmog'ida gazsimon yoqilg'ini ishlab chiqarish va taqsimlash - 43,5 % ga oshganligi,

elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalash (94,0 %) pasayganligi kuzatildi.

**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash  
sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini  
ishlab chiqarish**

2019-yil yanvar-fevralida ishlab chiqarilgan	Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari	2020-yil yanvar-fevralida ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, %
0,5	<p><b>Elektroenergiya, mln.kVt/s</b></p> 	0,005	0,9 ↓
13,6	<p><b>Issqlik energiyasi, ming Gkal</b></p> 	15,1	111,1 ↑

**Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi,  
chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish.**



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalaridan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 10,0 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining - 1,4 % ni) tashkil etdi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan boshqa axlatxonalarda xavfsiz chiqindilarni yo'qotish bo'yicha xizmatlar - 2,3 martaga, xavfsiz chiqindilarga butunlay yo'qotish uchun ishlov berish bo'yicha xizmatlar - 1,7 martaga, elektr energiyasini sotish bo'yicha xizmatlar 27,7 % ga, oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar - 22,2 % ga oshganligi, gazsimon yonilg'ini quvurlar orqali taqsimlash bo'yicha xizmatlar (74,6 %), suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash xizmatlari (93,4 %), boshqa guruhlariga kiritilmagan umumiy ishlarga mo'ljallangan boshqa uskunalarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha xizmatlar (69,0 %) kamayganligi kuzatildi.

**Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish  
va utilizatsiya qilish sohasida yirik sanoat korxonalaridan sanoat  
mahsulotlarini ishlab chiqarish**

2019-yil yanvar-fevralida ishlab chiqarilgan	Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari	2020-yil yanvar-fevralida ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, %
-------------------------------------------------------	--------------------------------------------	-------------------------------------------------------	----------------------

**Oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish  
va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm**

0,4



0,5

122,2



**Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha  
taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm**

3,9



3,7

93,4






**Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.**

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 229,7 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2019-yilning yanvar-fevral oyiga nisbatan - 99,5 % ni tashkil etdi, jami sanoatdagi ulushi esa 32,1 % ni tashkil etdi.

**2020-yilning yanvar-fevral oylarida iste'mol tovarlari  
ishlab chiqarish tarkibi va o'sishi sur'ati**



2019-yilning yanvar-fevral oyiga nisbatan iste'mol tovarlari tarkibida oziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish ulushining 53,0 % dan 2020-yilning yanvar-fevral oylarida 55,5 % ga oshdi, nooziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish ulushining 47,0 % dan 44,5 % ga pasayganligi kuzatildi.

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 2,0 % ni (2019-yil yanvar-fevral oylarida 5,7 %) tashkil etdi.



## SURXONDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

### Hududlar bo'yicha 2020-yilning yanvar-fevral oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'ati

	Mrd.so'm	Jamiga nisbatan ulushi, %	2019-yil yanvar-fevralga nisbatan o'sish, %
<b>Surxondaryo viloyati</b>	<b>229,7</b>	<b>100,0</b>	<b>99,5</b>
Termiz sh.	51,3	22,3	124,1
tumanlar:			
Angor	7,1	3,1	102,4
Boysun	6,6	2,9	102,1
Denov	37,2	16,2	71,3
Jarqo'rg'on	17,1	7,4	114,5
Qumqo'rg'on	7,7	3,4	100,7
Qiziriq	5,5	2,4	102,9
Muzrabot	4,3	1,9	102,7
Oltinsoy	9,1	4,0	109,9
Sariosiyo	10,0	4,4	101,4
Termiz	13,6	5,9	123,3
Uzun	7,5	3,2	102,6
Sherobod	8,7	3,8	57,4
Sho'rchi	44,0	19,2	109,5


### **Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining ishlab chiqarilishi**

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 114,8 mlrd.so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi.



Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 16,0 % ni tashkil etdi.

### **Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining sanoatning umumiy hajmidagi ulushi, %**

2020-yil yanvar-fevral



2019-yil yanvar-fevral



Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarning barchasi ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) korxonalar tomonidan amalga oshirildi.

### **Hududlarning sanoat ishlab chiqarishi.**

Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Termiz shahri (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 21,1 %), Jarqo'rg'on (18,9 %), Denov (10,3 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.




## SURXONDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

### Hududlarning sanoat ishlab chiqarishi


	Mrd.so'm	2019-yil yanvar-fevralga nisbatan o'sish, %
<b>Surxondaryo viloyati</b>	<b>716,5</b>	<b>102,1</b>
Termiz sh.	151,4	109,6
tumanlar:		
Angor	17,0	68,7
Boysun	12,7	108,2
Denov	73,5	78,6
Jarqo'rg'on	135,7	88,7
Qumqo'rg'on	34,0	98,2
Qiziriq	19,3	144,2
Muzrabot	25,6	178,3
Oltinsoy	12,2	103,9
Sariosiyo	55,6	119,2
Termiz	23,0	115,3
Uzun	20,3	100,2
Sherobod	67,5	141,2
Sho'rchi	68,6	94,7

### Hududlar bo'yicha sanoat ishlab chiqarish fizik hajm indeksi

(2020-yil yanvar-fevral oylarida 2019-yil yanvar-fevral oyiga nisbatan, %)




### Surxondaryo viloyati ishlab chiqarish hajmida hududlar sanoat mahsulotlarining ulushi, %



Hududlarning ishlab chiqarish salohiyatini oshirish bo'yicha amalga oshirilayotgan izchil chora tadbirlar natijasida, Termiz shahri (jamiga nisbatan 21,1 %), Jarqo'rg'on (18,9 %), Denov (10,3 %) tumanlari sezilarli darajada sanoat ishlab chiqarish fizik hajm indeksi oshishiga imkon berdi.

Shu bilan birga, iste'mol tovarlari hajmini Termiz (2019-yil yanvar-fevral oyiga nisbatan 123,3 %), Jarqo'rg'on (114,5 %), Oltinsoy (109,9 %), Sho'rchi (109,5 %), Qiziriq (102,9 %), Muzrabot (102,7 %) tumanlari va Termiz shahri (124,1 %) da sezilarli darajada oshdi.

### 2020-yil yanvar-fevral oylarida hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi va o'sishi ko'rsatkichlari



Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanish tahlili Termiz shahrida (1036,5 ming so'm), Jarqo'rg'on (629,5 ming so'm), Sherobod (353,6 ming so'm), Sho'rchi (333,3 ming so'm), Sariosiyo (272,6 ming so'm), Termiz (212,6 ming so'm), Denov (193,4 ming so'm) va Muzrabot (183,0 ming so'm) tumanlarida ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.



## SURXONDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Viloyat bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol tovarlari ishlab chiqarilishi 88,4 ming so'm bo'lgan holda, Termiz shahrida - 351,3 ming so'mni, Sho'rchi tumanida - 213,8 ming so'mni, Termiz tumanida - 125,3 ming so'mni, Denov tumanida - 97,8 ming so'mni va Jarqo'rg'on tumanida - 79,3 ming so'mni tashkil etdi.

### 2020-yil yanvar-fevral oylarida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari va iste'mol tovarlari ishlab chiqarish, ming so'm


	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol tovarlari
<b>Surxondaryo viloyati</b>	<b>275,6</b>	<b>88,4</b>
Termiz sh.	1036,5	351,3
tumanlar:		
Angor	129,5	54,5
Boysun	107,0	55,4
Denov	193,4	97,8
Jarqo'rg'on	629,5	79,3
Qumqo'rg'on	141,0	32,0
Qiziriq	112,5	32,1
Muzrabot	183,0	30,7
Oltinsoy	70,3	52,3
Sariosiyo	272,6	49,2
Termiz	212,6	125,3
Uzun	117,7	43,2
Sherobod	353,6	45,6
Sho'rchi	333,3	213,8

Shu bilan birga, iste'mol tovarlarining eng katta ulushi Termiz shahriga (viloyat iste'mol tovarlarining 22,3 %), Sho'rchi (19,2 %) va Denov (16,2 %) tumanlariga to'g'ri keldi.

### **Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi.**

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 351,7 mlrd.so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi. Ularning umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 49,1 % ni tashkil etdi.

### **2020-yilning yanvar-fevral oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi, %**



Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Boysun (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Oltinsoy (100,0 %), Uzun (100,0 %), Termiz (91,1 %), Angor (89,5 %), Denov (76,7 %) va Qumqo'rg'on (74,1 %) tumanlarida kuzatildi.




Shu bilan birga, eng kichik ulush Sherobod (20,7 %), Muzrabot (28,5 %), Jarqo'rg'on (32,4 %), Sho'rchi (35,7 %) tumanlari va Termiz shahrida (38,3 %) kuzatildi.

**Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari.**


Bugungi kunda viloyatda 2779 ta korxonalar faoliyat yuritmoqda, shundan 565 tasi (faoliyat yuritayotgan korxonalar umumiy sonining 20,3 %) Termiz shahriga, 312 tasi (11,2 %) Denov tumaniga, 199 tasi (7,2 %) Termiz tumaniga va 198 tasi (7,1 %) Jarqo'rg'on tumaniga to'g'ri kelmoqda.

**Faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari soni, birlik**  
(2020-yil 1-mart holatiga)



2020-yil yanvar-fevral oylarida viloyatda 154 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, ularning 13,6 foizi Termiz shahri, 12,3 foizi Sariosiyo tumaniga, 10,4 % Denov tumaniga, 9,7 % Qumqo'rg'on tumaniga va 8,4 % Sho'rchi tumaniga to'g'ri keladi.

### Yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni, birlik (2020-yil 1-mart holatiga)



Sanoat statistikasi bo'limi  
Aloqa telefoni: (76) 223-07-24